

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**



Ro'yxatga olingan: № MD-70230101-1.08

2023-yil "08" 08

**LINGVOPRAGMATIKA  
FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:**

200 000 – San'at va gumanitar fanlar.

**Ta'lim sohasi:**

230 000 – Tillar

**Mutaxassislik:**

70230101 – Lingvistika (ingliz tili)

Samarqand - 2023



Fan/Modul kodi LPRG1304		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 4
Fan/Modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari: 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Lingvopragmatika	60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni			
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad - magistr talabalarning lingvistikning yangi sohalaridan biri bo'lgan lingvopragmatika haqidagi bilimlari doirasini kengaytirish, ularda zamonaviy lingvistik fan yo'nalishida pragmatik mavzular ketma-ketligiga e'tibor bergan holda hamda keng miqyosda o'rganib, matnlarda pragmatik tahlil qilish qobiliyatini mustahkamlash hamda pragmatik tahlillarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, pragmatik tahlillar, pragmatikaning nazariy asoslari nutqiy faoliyat bilan o'zaro chambarchas aloqadorligi, ingliz tili lingvistik sematikasi, pragmatikaning eng muhim mavzulari, jumladan, deyksis, diskurs, presuppozitsiya, implikatura, referentsiya, xushmuomalalik, nutqiy akt kabilarning mazmun-mohiyatini anglash hamda mazkur pragmatik terminlarning matnlarda tahliliy jihatlarini ochib berish va egallangan bilim va ko'nikmalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishiga erishish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga qo'yidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1 – mavzu. Pragmatikaning umumiy nazariyasi</b></p> <p>Pragmatika sohasining tilshunoslikda tutgan o'rni, pragmatikaning ilmiy, nazariy yo'nalishlari, pragmatik tahlil qoidallari, matnda pragmatikaning roli, pragmatikaning muhim qatlamlari, pragmatika va semantikaning matnda tutgan vazifalari kabi masalalar tushuntiriladi.</p> <p><b>2 – mavzu. Deyksis mohiyati</b></p> <p>Tilshunoslik sohasidagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lmish deyksis tushunchasining matn qatlamida qay tarzda qo'llanilish holatlari hamda matn mazmunini shakllantirish kabi qismlarni o'zida mujassam etish mohiyatlarini qamrab olishi kabi tushunchalarni magistr'larga turli lingvistik usullar orqali tushuntirib beriladi. Bunda asosan shaxs, makon, zamon, sotsial va diskurs deyksislar kengroq tushuntiriladi.</p> <p><b>3 – mavzu. Deyksis va til</b></p> <p>Deyksis tushunchasini til qatlamida hamda matn mohiyatini ochib berishdagi</p>			

<p>maqsad va vazifalari, mazkur termini o'zbek va rus matnlari bilan qiyoslab, yangicha ilmiy nazariyalarni shakllantirib o'rgatiladi. Bu mavzuda asosan zamon, sotsial va diskurs deysislarining matndagi vazifalariga ko'proq to'xtaladi.</p> <p><b>4 – mavzu. Tilshunoslikda referensiyaning roli</b></p> <p>Tilshunoslikda deysis bilan birgalikda ilmiy jihatdan bir-biriga solishtirish orqali referensiya va deysisning umumiy aspektlari, nolingvistik va lingvistik sathda referensiyaning muhim o'rinlari haqida fikr-mulohazalar, so'zlovchining kontekstda referensial holatlarini lingvopragmatik tahlillar asosida yuritilishi to'g'risida so'z boradi.</p> <p><b>5 – mavzu. Presuppozitsiya</b></p> <p>Mazkur qismda matnning yaratishida presuppozitsiyaning muhim qo'llanilish holatlari haqida hamda uning deysis bilan izomorfik va allomorfik tomonlari tadqiq qilinadi. Ushbu mavzuda presuppozitsiyaning xususiyatlari va turlari haqida to'xtaladi, misollar keltiriladi, ilmiy tahlil qilinishi e'tiborga olingan.</p> <p><b>6 – mavzu. Diskurs, anafora va antetsedent</b></p> <p>Mazkur qismda diskurs, anafora va antetsedent tushunchalari haqida so'z boradi. Bunda asosan matnda ularning tutgan o'rinlari, farqli va o'xshash xususiyatlari ilmiy tahlil etiladi. Bundan tashqari, mazkur tushunchalarning matn yaralishidagi muhim qirralari va boshqa xususiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi.</p> <p><b>7 – mavzu. Imo-ishora va kommunikatsiya</b></p> <p>Ushbu mavzuda imo-ishora tushunchasi, uning matnda tutgan lingvistik mohiyati, pragmatik mazmuni, xususiyatlari, shu jumladan, imo-ishora va kommunikatsiyaning bir-biri bilan bog'liklik tomonlari, matn aro lingvistik tahlil etilishi haqida so'z boradi. Ushbu mavzuda imo-ishora va kommunikatsiyaning xususiyatlari va turlari haqida to'xtaladi, misollar keltiriladi, ilmiy tahlil qilinishi e'tiborga olingan.</p> <p><b>8 – mavzu. Diskurs va madaniyatlararo pragmatika</b></p> <p>Mazkur qismda diskurs, madaniyatlararo pragmatika, uning kommunikatsiya bilan bog'liklik qirralari o'rganiladi. Bundan tashqari, madaniyatlararo pragmatikaning tillar kesimida bir-biriga yaqin ilmiy xususiyatlarni, muhim qo'llanilish holatlari haqida hamda uning kommunikatsiya bilan izomorfik va allomorfik tomonlari tadqiq qilinadi.</p> <p><b>9– mavzu. Implikatura</b></p> <p>Ushbu mavzuda matnda implikaturaning umumiy aspektlari, so'zlashuv nutqida implikaturaning ishlatilishi va implikaturaning xususiyatlari to'g'risida keng fikr yuritiladi. Bundan tashqari, lingvistik sathda matn lumotlarning berilishi yoki qabul qilinishida implikaturaning roli hamda uning matndagi mazmun-mohiyati to'g'risida kengroq</p> <p><b>10 – mavzu. Tilda xushmuomalalik va kommunikatsiyaning qo'llanilishi</b></p> <p>Mazkur mavzuda xushmuomalalik tushunchasining matndagi o'rni, uning umumiy xususiyatlari, xushmuomalalik mohiyatini ifodalovchi vositalar va aynan, ikkinchi shaxs deysisi bilan xushmuomalalik tushunchasining kelish holatlari, xushmuomalalik strategiyalari, uning pozitiv va negativ holatlari haqida so'z yuritiladi.</p>	
---	--



<p>15. Axborot tuzilishi</p> <p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p><i>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Lingvopragmatika fani, uning ob'yekti va predmeti</li> <li>2. Lingvopragmatika tilshunoslikdagi boshqa fanlar bilan aloqasi</li> <li>3. Lingvopragmatika fanining o'rganilish tarixi</li> <li>4. Til va faoliyat terminlarining o'zaro bog'liqligi</li> <li>5. Til va nutq</li> <li>6. Til va tafakkur</li> <li>7. Muloqot strukturalari</li> <li>8. Diskurs tushunchasi</li> <li>9. Deyksis mohiyati va uning tilshunoslikdagi ahamiyati</li> <li>10. Deyksis turlari</li> <li>11. Referentsiya hodisasi</li> <li>12. Implikatura va uning matndagi o'rni</li> <li>13. Diskurs, matn va kontekst munosabati</li> <li>14. Diskursning asosiy kategoriyalari</li> <li>15. Nutqda adresant va adresat roli</li> <li>16. Presuppozitsiya</li> <li>17. Kommunikatsiya va uning matndagi lingvistik roli</li> <li>18. Nutqiy muloqot komponentlari</li> <li>19. Nutqiy akt tuzilishi</li> <li>20. Nutqiy aktlar tasnifi</li> <li>21. Pragmatikaning evolyutsiyasi</li> <li>22. Imo-ishora va muloqot</li> <li>23. Tema-rema hodisasi</li> <li>24. Illokutiv aktlar</li> <li>25. Verbal va nonverbal kommunikatsiya</li> <li>26. Diskurs va madaniyatlararo pragmatika</li> <li>27. Tilda xushmuomalalik va kommunikatsiyaning qo'llanilishi</li> <li>28. Qo'pollik strategiyalari</li> <li>29. Muloqotning pragmatik qirralari</li> <li>30. Axborot tuzilishi</li> </ol>	<p><b>3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• deyskis hamda uning turlari bo'yicha ma'lumotlarga, referentsiyaning nolingvistik va lingvistik situatsiyalarda kelishi, presuppozitsiyaning umumiy aspektlari to'g'risidagi tushunchalar, implikatsiyaning umumiy xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, til qatlamida nutqiy faoliyatning kelish</li> </ul>
--	---

<p><b>11 – mavzu. Qo'pollik strategiyalari</b></p> <p>Mazkur mavzuda qo'pollikning umumiy aspektlari, qo'pollik shakllari, qo'pollik strategiyalari ya'ni intensional, mok va korrekktiv strategiyalari haqida gap boradi. Aynan qo'pollikning matnda tutgan o'rni, deysitik mohiyati, turli holatlarda qo'llanilish jihatlari o'rin olgan.</p> <p><b>12 – mavzu. Nutqiy aktlar va ularning ahamiyati</b></p> <p>Ushbu mavzuda nutqiy aktlarning matnda tutgan muhim o'rni, umumiy nazariyalarning sharhi va vazifalarini oydinlashtirish, nutqiy aktlarni performativ, illokutiv jarayonlardagi o'rni, nutqiy aktlarni eksplisit va implisit holatlari, nutqiy aktlarning so'roq, buyruq va his-hayajonli jumalardagi jihatlari kabilar to'g'risida fikr yuritiladi.</p> <p><b>13 – mavzu. Muloqotning pragmatik qirralari</b></p> <p>Mavzuda ingliz, o'zbek va rus matnlarida muloqot mohiyatining til ko'nikmalari qatlamida kelish jihatlari, muloqotning strukturaviy xususiyatlari hamda muloqot stilingining muhim tomonlari, muloqotda adresant va adresatning muhim qirralari, so'zlovchining muloqot faoliyatidagi deysitik ishoratlari hamda uning o'zaro munosabatlari kabilar o'rin olgan.</p> <p><b>14 – mavzu. Yangi xabar, tema-rema munosabatlari</b></p> <p>Mazkur mavzuda tema-rema jarayonining umumiy holatlari, berilgan xabarning umumiy pragmatik xususiyatlari, matn kontekstida yangi va qayd etilgan xabarning anaforik va kataforik xususiyatlari, har qanday til matnida uchraydigan tema-rema hodisalarining matn shakllanishida tutgan o'rni kabilar haqida so'z yuritiladi.</p> <p><b>15 – mavzu. Axborot tuzilishi</b></p> <p>Mazkur mavzuda axborot tushunchasining pragmatik mohiyati, matnda tutgan roli, vazifalari, diskursiv vaziyatlarda kelish holatlari, diskurs statusi, tinglovchi statuslarining matndagi o'rinlari axborot strukturalari kabilar haqida so'z boradi.</p> <p><b>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</b></p> <p><i>Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Pragmatikaning umumiy nazariyasi</li> <li>2. Deyksis mohiyati</li> <li>3. Deyksis va til</li> <li>4. Tilshunoslikda referentsiyaning roli</li> <li>5. Presuppozitsiya</li> <li>6. Diskurs, anafora va antetseident</li> <li>7. Imo-ishora va kommunikatsiya</li> <li>8. Diskurs va madaniyatlararo pragmatika</li> <li>9. Implikatura</li> <li>10. Tilda xushmuomalalik va kommunikatsiyaning qo'llanilishi</li> <li>11. Qo'pollik strategiyalari</li> <li>12. Nutqiy aktlar va ularning ahamiyati</li> <li>13. Muloqotning pragmatik qirralari</li> <li>14. Yangi xabar, tema-rema munosabatlari</li> </ol>
--



<p>holatlari, so'zlashuv va uning pragmatik xususiyatlari hamda shu kabi pragmatik terminlar haqida <b><i>tasavvurga ega bo'lishi</i></b>;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>tema-rema tushunchasi hamda ular bo'yicha umumiy tushunchalar uchun zarur bo'lgan axborotni o'la bilishi, ilmiy axborotlarni muntazam ravishda yangilab turishi, lug'at boyligini o'qitilayotgan tildagi terminlar, atamalar va so'z birlikmalarining ma'nolarini chuqur anglashga, hozirgi zamon ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish, jahonning turli davlatlarida fan bo'yicha chop etilgan ilmiy nashrlar, ilmiy maqolalardagi fikr-mulohazalarni o'qib tushunishi, solishtirishi va tahlil qilishi, ilmiy izlanishlarda pragmatikaning ma'lum qirralaridan unumli foydalana olishi hamda qo'llay olishni <b><i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i></b>;</li> <li>kurs materiallaridan foydalangan holda ilmiy maqolalar chop etib turishi; fan bo'yicha boshqa talabalar hamda ilmiy tadqiqotchilar bilan jonli muloqot olib borishi; yangi informatsion texnologiyalardan kasbga yo'naltirilgan maqsadlarda foydalana olish <b><i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i></b>.</li> </ul>	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>ma'ruzalar;</li> <li>interfaol keys-stadilar;</li> <li>seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>bahs-munozara metodi;</li> <li>blits-so'rov metodi;</li> <li>zinama-zina metodi;</li> <li>muammoli vaziyat metodi;</li> <li>mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar;</li> <li>guruhlarda ishlash;</li> <li>taqdimotlarni qilish;</li> <li>individual loyihalar;</li> <li>jamoat bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar;</li> <li>FSMU metodi.</li> </ul>
<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yich yozma topshirish.</p>	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Austin. J.L. How to do things with words- Oxford: At the Clarendon press, 1962. – 174 p.</li> <li>Betty J. Birner. Introduction to Pragmatics. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2013.- 342 p.</li> </ol>
<p><b>6.</b></p>	

- Brown G., Yule G. Discourse analysis. –Cambridge: CUP, 1988. -283 p.
  - Huang Y. Pragmatics. – Oxford: OUP, 2007. – 366 p.
  - Yule G. Pragmatics. –Oxford: OUP, 1996. – 138 p
  - Бенвенист Э. Общая лингвистика – М.: Прогресс, 1974. – 447 с.
  - Boitaqulova G. Badiiy mikromatnda temporallik va uning deyklik xususiyatlarining qiyosiy funksional tadqiqi. –T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2017.-108 b.
  - Pardaev Z. Pragmatik lingvistika (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Samarqand, 2013. -104 b.
  - Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. -300 b.
  - Sulaymanova N. Badiiy matnda lokativlik kategoriyasi va ularning deyklik xususiyatlarini qiyosiy funksional tadqiqi. –T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2017.-136 b.
  - Shermatov A.A.Ingliz ilmiy-texnik matnda deyksisning ifodalanishi // nomzod.diss.ning avtoreferati: -Toshkent, 2008. -22 b.
- Qo'shimcha adabiyotlar**
- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
  - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, № O'RQ-837. 2023-yil 1-may. -49 b.
  - Кацнельсон С.Д. Содержание слова, значение и обозначение. – М. –Л.: Наука, 1965. – 110 с.
  - Матвеева Т.В. Полный словарь лингвистических терминов. – Ростов н/Д: Феникс, 2010. – 562 с.
  - Пирс Ч. Начала прагматизма. –СПб.: СПбГУ, 2000. -352 с.
  - Chalker S., Weinur E. The Oxford dictionary of English grammar. – Oxford: OUP, 1998. -461 p.
  - Cruse D.Alan. Meaning in language. An introduction to semantics and pragmatics. –Oxford: OUP, 2000. -437 p.
  - Mey Jacob L. Concise encyclopedia of pragmatics. – Oxford: Langford Lane, 2009. -1182 p.
  - Gonzalez M. Pragmatic markers in oral Narrative. – Amsterdam: John Benjamin's Publishing company, 2004. – 427 p.
- Axborot manbaalari**
- <https://www.masterclass.com/articles/pragmatics-in-linguistics-guide>
  - <https://en.wikipedia.org/wiki/Pragmatics>
  - <https://www.britannica.com/science/pragmatics>
  - <https://plato.stanford.edu/entries/pragmatics/>
  - <https://www.youtube.com/watch?v=MPwPk-YgvJQ>
  - [www.linguist.org.uk](http://www.linguist.org.uk)

	<p>7. <a href="http://www.philology.ru">www.philology.ru</a></p> <p>8. <a href="http://www.krugosvet.ru">www.krugosvet.ru</a></p> <p>9. <a href="http://www.ziyounet.uz">www.ziyounet.uz</a></p> <p>10. <a href="https://arm.samdchti.uz/">https://arm.samdchti.uz/</a></p> <p>11. <a href="http://www.library.ru/">http://www.library.ru/</a></p>
7.	<p>Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2023 yil “<u>30</u>” <u>08</u>” dagi “<u>1</u>”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/Modul uchun ma'sullar:</b></p> <p>A.A. Shermatov - “Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrası mudiri, dotsent</p> <p>G.T.Asadova - “Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti” kafedrası katta o'qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>S.I.Shodiyev - SamDChTI, “Til va tarjima” kafedrası mudiri, PhD., dotsent</p> <p>N.A.Isakova – SamDU, “Ingliz tili kafedrası” dotsenti, PhD.</p>